


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING
SANOAT ISHLAB CHIQRISHI
2023- YIL YANVAR-MAY
(DASTLABKI MA’LUMOT)**





**Tel.: 71-202-80-47
www.stat.uz**

Respublikada faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

(2023-yil 1-iyun holatiga ko'ra)


Bugungi kunda respublikada 70,6 mingta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 11,4 mingtasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 16,2 % i) Toshkent shahriga, 8,0 mingtasi (11,3 %) Farg'ona viloyatiga, 7,2 mingtasi (10,2 %) Toshkent viloyatiga, 6,3 mingtasi (8,9 %) Samarqand viloyatiga va 6,0 mingtasi (8,5 %) Andijon viloyatiga to'g'ri kelmoqda.

Jami faoliyat yuritayotgan



Jami faoliyat yuritayotgan korxonalarda sanoat korxonalarining ulushi

Jami yangi tashkil etilgan



Farg'ona	856
8 006	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Qoraqalpog'iston Resp.	830
3 259	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Samarqand	651
6 276	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Toshkent sh.	648
11 434	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Toshkent	536
7 208	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Qashqadaryo	516
4 297	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Namangan	432
5 166	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Andijon	423
6 019	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Xorazm	401
3 925	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Navoiy	370
3 266	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Buxoro	351
4 140	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Jizzax	337
2 751	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Surxondaryo	233
3 287	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●
Sirdaryo	106
1 577	● ● ● ● ● ● ● ● ● ●

● ● Faoliyat yuritayotgan


Yangi tashkil etilgan

O'zbekiston Respublikasi sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023- yilning yanvar-may oylarida respublika korxonalari tomonidan 231,2 trln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 105,7 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.




Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Navoiy viloyatida (36 903,1 ming so'm), Toshkent shahrida (14 218,8 ming so'm) hamda Toshkent viloyatida (12 827,6 ming so'm) o'rtacha respublika darajasi ko'rsatkichidan (6 401,5 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.




Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 190,1 trln. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 82,2 % ni tashkil etdi.



2023- yilning yanvar-may oylarida respublikada jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Toshkent shahri (18,3 %), Navoiy viloyati (16,9 %), Toshkent viloyati (16,6 %), Andijon viloyati (9,2 %) hamda Samarqand (5,1 %) viloyati hissasiga tog'ri keldi.



Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI, Jizzax viloyatida (106,7 %), Sirdaryo viloyatida (106,5 %) hamda Qashqadaryo (106,5 %) viloyatlarida kuzatildi.





Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, hududlar kesimida

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – tabiatda qattiq jinslar shaklida uchraydigan (koʻmir, ruda), suyuq holatda uchraydigan (neft) yoki gazsimon holatda uchraydigan (tabiiy gaz) foydali qazilmalarni qazib olishni oʻz ichiga oladi.

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati korxonalari tomonidan 2023- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 22,0 trln. soʻm yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 9,5 % ga toʻgʻri keldi.




*Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni
ishlashning jami sanoat ishlab
chiqarishi hajmidagi ulushi*



mlrd. soʻmda *FHI, % da*

yanvar-may oylarida yirik korxonalar bo'yicha
(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan % da*)



Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-may	2023-yil yanvar-may	Farqi +/-
Ko'mir ming t.	2 060,0	1 975,2	- 84,8
Neft, ming t.	317,9	327,6	9,7
Tabiiy gaz, mln. kub.m	22 019,4	19 865,5	- 2 153,9
Gaz kondensati, ming t.	555,3	510,8	- 44,5

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Ishlab chiqaradigan sanoat hududlar kesimida

Ishlab chiqaradigan sanoat bu – tarmoq yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni, garchi ishlab chiqarishning ma’lum turi uchun birdan-bir to’liq me’zon hisoblanmasa ham, fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni o’z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 190,1 trln. so’zni yoki jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 82,2 % ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,3 % ni (2022- yilning yanvar-may oylarida – 2,2 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 23,4 % (23,2 %), o'rta-quyi texnologiyali – 36,7 % (38,3 %), quyi texnologiyali 38,6 % (36,3 %)ni tashkil etgan.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 20,5 % (2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 112,7 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 24,9 % (2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 103,8 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 18,5 % (2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 108,2 %)ga to'g'ri keldi.

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 17,1 % (2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 107,7 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 8,2 % (2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 100,9 %)ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

2023- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda 550,8 ming tonna avtomobil benzini (2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 16,0 % ga ko'paygan), 222,6 ming tonna kalava ip (12,1 % kamaygan), 79,4 mln. litr pivo mahsulotlari (3,3 % ga ko'paygan) hamda 483,8 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (39,4 % ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.


Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-may	2023- yil yanvar-may	Farqi +/-
Yengil avtomobillar, (maxsus yengil avtomobillardan tashqari) dona	122 200	120 631	- 1 569
Yuk avtomobillari, dona	1 760	890	- 870
Avtomobil dvigatellari dona	94 118	85 234	8 884
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	798,1	483,8	- 314,3
Paxta tolasi ming t.	272,0	299,3	27,3

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Yuk avtomobillari ishlab chiqarish (2023- yilning yanvar-may oylarida)

Yuk avtomobillari – barcha turdagi yuklarni tashish uchun mo'ljallangan dizel yoki boshqa turdagi yoqilg'i yordamida harakatlanuvchi transport vositasi.


Respublikada 2023- yilning yanvar-may oylarida yirik korxonalar bo'yicha jami 890 dona yuk avtomobillari ishlab chiqarildi. Yuk avtomobillari ishlab chiqarishda o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 49,4 % ga kamayish kuzatildi.



Avtobus ishlab chiqarish (2023- yilning yanvar-may oylarida)

Avtobus – 9 va undan ortiq o'rinni yo'lovchilar tashiydigan texnik jihatdan mexanik motorli transport vositasi.

Respublikada 2023- yilning yanvar-may oylarida yirik korxonalar bo'yicha jami 340 dona avtobus ishlab chiqarilib, ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 9,6 % ga kamayish kuzatildi.



* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

O‘zbekiston Respublikasida yirik korxonalar tomonidan yengil avtomobillar ishlab chiqarish (2023- yilning yanvar-may oylarida)

Yengil avtomobillar – umumiy yoki “maxsus yengil avtomobillar”ga bo‘linib 2 kishidan 8 kishigacha mo‘ljallangan transport vositasi.

Avtomobil ishlab chiqarish sanoatida 2023- yilning yanvar-may oylarida 39 264 dona “Cobalt” (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 0,9 % ga oshdi), 1 992 dona “Nexia T-250” (78,7 % ga kamaydi), 27 961 dona “Gentra” (21,0 % ga kamaydi), 281 dona “Spark” (95,1 % ga kamaydi), 26 815 dona “Damas” (9,4 % ga kamaydi), 8 612 dona maxsus yengil avtomobillar (18,5 % ga oshdi), shuningdek, 8 853 dona “Tracker” va 6 943 dona “Onix” avtomobillari ishlab chiqarildi.



“Cobalt”

2023- yil ▲

39 264 dona

2022- yil ▲

38 916 dona

2021- yil ▲

25 059 dona



“Nexia T-250”

2023- yil ▲

1 992 dona

2022- yil ▲

9 364 dona

2021- yil ▲

11 130 dona



“Damas”

2023- yil ▲

26 815 dona

2022- yil ▲

29 591 dona

2021- yil ▲

22 799 dona



“Gentra”

2023- yil ▲

27 961 dona

2022- yil ▲

35 381 dona

2021- yil ▲

16 848 dona



“Tracker”

2023- yil ▲

8 853 dona



Maxsus yengil avtomobillar

2023- yil ▲

8 612 dona

2022- yil ▲

7 266 dona

2021- yil ▲

5 016 dona



“Onix”

2023- yil ▲

6 943 dona

Yengil avtomobillar uchun pnevmatik rezina shinalar ishlab chiqarish (2023- yilning yanvar-may oylarida)

Avtomobillar uchun shina – avtomobil, traktor va boshqalar mashinalarning g'ildiragi gardishiga kiygiziladigan rezina yoki rezina to'qimali pnevmatik qobiq; g'ildirakning yo'l bilan tishlashishini ta'minlaydi, notekis yo'llardagi turtki va zarbalarni yumshatadi.

2023- yilning yanvar-may oylarida jami yirik korxonalar tomonidan 440,8 ming dona yengil avtomobillar uchun shinalar ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 22,4 % ga ko'paygan.



Avtomobil dvigatellari ishlab chiqarish (2023- yilning yanvar-may oylarida)

Avtomobil dvigateli – avtomobilni harakatga keltiruvchi asosiy qurilma bo'lib, 2,3,4 va undan ortiq silindri bo'lishi mumkin.

Respublikaning mashinasozlik sanoatida yirik korxonalar tomonidan 85,2 ming dona dvigatellar ishlab chiqarilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 9,4 % ga kamaygan.




* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Akkumulyator ishlab chiqarish (2023- yilning yanvar-may oylarida)

Akkumulyator – keyinchalik foydalanish maqsadida energiyani to‘plash va saqlash uchun mo‘ljallangan qurilma.



2023- yilning yanvar-may oylarida mashinasozlik sanoatida, jami yirik korxonalar tomonidan 485,4 ming dona akkumulyatorlar ishlab chiqarildi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 58,9 % ga ko‘paygan.



Sovutgich va muzlatgichlar ishlab chiqarish (2023- yilning yanvar-may oylarida)

Sovutgich – issiqlik izolyatsiya qilingan xonada past haroratni saqlaydigan qurilma. **Muzlatgich bu** – alohida jihoz yoki muzlatgichning ajralmas qismi, muzlatish va saqlash uchun mo‘ljallangan.

2023- yilning yanvar-may oylarida jami yirik korxonalar tomonidan 290,9 ming dona sovutgich va muzlatgichlar ishlab chiqarilgan bo‘lib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 22,0 % ga oshgan.



* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko‘ra


Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-may	2023- yil yanvar-may	Farqi +/-
Akril va vinil polimerlari asosidagi bo'yoqlar va laklar, suv muhitida, t.	6 411,5	6 410,8	0,7
Portlandsement, ming t.	4 046,4	4 583,3	536,9
Tamaki mahsulotlari, mln.dona	4 335,7	4 588,0	252,3
Dizel yoqilg'isi, ming t.	231,9	504,3	272,4
Avtomobil benzini, ming t.	475,0	550,8	75,8

Texnologik jihozlarni kapital qayta tiklash ishlari, kimyo korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish hajmini oshirish imkonini berib, dinatriy karbonati ishlab chiqarish (2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 99,8 %) hamda kaliy xlorid ishlab chiqarish 115,4 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)




* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Metallurgiya sanoati

Metallurgiya sanoati – cho‘yan ishlab chiqarish va qora va rangli metallarni qayta ishlash, jumladan, quyma cho‘yan va toza metallarga kimyoviy elementlar qo‘shgan holda superqotishmalar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko‘ra, metallurgiya sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 24,9 % bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 3,8 % ga o‘tdi va ishlab chiqarish hajmi 47 257,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish – minerallar asosida mahsulotlar ishlab chiqarishga tegishli bo‘lgan ishlab chiqarish turlarini o‘z ichiga olib, shisha va shishadan mahsulotlar, keramik buyumlar, polga o‘rnatiladigan qoplamalar, kafel, cherepitsa, terrakota buyumlar, sement va xomashyodan tayyor mahsulotgacha ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,2 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 8,7 % ga o‘tdi va ishlab chiqarish hajmi 8 015,4 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish – yeyiladigan qishloq xo‘jaligi, o‘rmon va baliqchilik (oziq-ovqat) mahsulotlarini, spirtsiz ichimliklarni, mineral suvlarni va boshqa idishdagi suvlarni o‘z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 13,4 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 6,5 % ga ko‘paydi va ishlab chiqarish hajmi 25 512,4 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ichimliklar ishlab chiqarish – spirtsiz ichimliklar va mineral suvlarni ishlab chiqarishni, spirtli ichimliklarni ishlab chiqarishni, asosan fermentatsiya metodi orqali; pivo va vino, shuningdek, distillangan alkogol ichimliklar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,1 % bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 113,3 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 5 895,6 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – to'qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish, shuningdek, to'qimachilik gazlamalarini va tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, to'qimachilik mahsulotlariga va kiyimlarga bezak berish, kiyimlardan tashqari tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-may oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 14,0 % ni tashkil etgan, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 6,4 % ga ko'payib, ishlab chiqarish hajmi 26 584,3 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Kiyim ishlab chiqarish

Kiyim ishlab chiqarish – barcha materiallardan (masalan, teri, to'qimachilik gazlamalari, to'qilgan va trikotaj gazlamalari va h.k.) barcha tikish mahsulotlarini (tayyor yoki alohida buyurtma bo'yicha qilingan), kiyimlarning barcha turlari (masalan, ustki kiyim, erkaklar, ayollar va bolalar uchun ichki kiyimlar, ish, ofis, kundalik yoki sport kiyimlari va h.k.) va aksessuarlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-may oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,1 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 114,0 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 7 708,5 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish – kimyoviy jarayonlar yordamida organik va noorganik xomashyo, materiallarni qayta ishlashni va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 6,5 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 99,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 12 365,3 mlrd. so'mni tashkil etgan.



Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish

Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish – foydalanish uchun tayyor bo'lgan xom neft va ko'mir mahsulotlarini qayta ishlashni o'z ichiga oladi. Asosiy faoliyati bu – xom neftni komponentlarga separatsiyasida bo'lgan krekning va distillyatsiyalash yo'li bilan neftni tozalash. Shuningdek etan, propan va butan kabi gaz mahsulotlarini, shu bilan birgalikda neftni qayta ishlash zavodi mahsulotlarini o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,1 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 108,1 % ni tashkil etdi hamda ishlab chiqarish hajmi 5 840,9 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish – rezina va plastikdan mahsulot ishlab chiqarishni, ishlab chiqarishda foydalanadigan xomashyo materiallarini o‘z ichiga oladi. Lekin bu bo‘limga ishlab chiqarishning barcha turlari va materiallari kiradi degani emas.


2023- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko‘ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,7 % ni, fizik hajm indeksi 109,9 % ni tashkil qildi hamda ishlab chiqarish hajmida 3 221,1 mlrd. so‘m kuzatildi.



Elektr uskunalari ishlab chiqarish

Elektr uskunalari ishlab chiqarish – elektr energiyasini ishlab chiqaruvchi va taqsimlovchi mahsulotlar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, bu bo‘lim elektr yorituvchi, signal uskunalari va maishiy elektr asboblari ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko‘ra, ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ulushi 3,6 % ni, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 161,7 % ni tashkil etdi hamda ishlab chiqarish hajmi 6 933,2 mlrd. so‘m ekani kuzatildi.



Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish

Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish – “toza metallardan aralashmasiz” buyumlar ishlab chiqarish (jumladan, ehtiyot qismlari, konteynerlar va moslamalar), odatda statsionar, faqat elektr, elektron yoki optik asboblardan uchun radiopriborlar, uzatish moslamalari kabi, ko'rsatilgan metallar (ba'zida boshqa metallar bilan) va ancha murakkab birikmalar qotishmalarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,4 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 106,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 4 531,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish – yo'lovchilar yoki yuklarni tashish uchun avtotransport vositalari ishlab chiqarishni o'z ichiga olib, turli butlovchi qismlar va aksessuarlar, shuningdek, treyler va yarim tirkamalarni ishlab chiqarishni ham o'z ichiga oladi.




2023- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 12,0 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 100,3 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 22 815,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, hududlar kesimida

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – elektr energiyasini, tabiiy gazni, bug'ni, issiq suvni va shu kabilarni doimiy tarmoqlar – kabellar, quvurlar, suv quvurlari orqali yetkazib berish bilan bog'liq faoliyatni o'z ichiga oladi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 18,0 trln. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 7,8 % ini) tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2023- yilning yanvar-may oyida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektroenergiya ishlab chiqarish 103,1 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 93,0 % ni tashkil etdi.


Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-may	2023- yil yanvar-may	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	30 374,2	31 326,1	951,9
Issiqlik energiyasi, ming gkal	12 906,5	12 003,5	- 903,0
Ko'mirni yer ostida gazga aylantirish natijasida hosil bo'lgan gaz, ming kub. m	3 315,0	39 628,0	36 313,0

(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)

Elektroenergiya



Issiqlik energiyasi





* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish, hududlar kesimida

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish – qattiq va suyuq, sanoat va maishiy, shuningdek, zaharlangan chiqindilarning barcha turlariga ishlov berish (yig'ish, qayta ishlash va yo'qotish)ni o'z ichiga oladi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1,1 trln.so'mga (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % iga) to'g'ri keldi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilishning jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi



mlrd. so'mda FHI, % da

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning mos davriga nisbatan to'qimachilik chiqindilari 13,7 % ga, oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 3,5 % ga ko'paydi.


Shuningdek, axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda 20,8 % ga kamayish kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-may	2023-yil yanvar-may	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	147,7	152,8	5,1
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar mln.so'm	206,1	163,2	- 42,9
To'qimachilik chiqindilari, t	7 087,3	8 059,7	972,4

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)

Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar

Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar




* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2023- yilning yanvar-may oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 65,0 trln.so'mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 108,0 %, uning jami sanoatdagi ulushi 28,1 % ga to'g'ri keldi.


Oziq-ovqat mahsulotlari



2023- yilning yanvar-may oylarida respublikada 26,6 trillion so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 10,1 % ga oshdi.

2022- yilning shu davriga nisbatan respublika bo'yicha o'rtacha iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda Jizzax viloyati (189,6 %), Namangan viloyati (121,7 %) hamda Samarqand (119,8 %) viloyati korxonalari tomonidan yuqori o'sish sur'ati kuzatildi.

Nooziq-ovqat mahsulotlar




Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 41,0 %, nooziq-ovqat mahsulotlar 59,0 % ni tashkil etdi. 2022- yilning yanvar-may oylarida iste'mol tovarlarining umumiy hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 33,1 %, nooziq-ovqat mahsulotlar ulushi 66,9 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, 2022- yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlarining o'sish sur'ati 110,1 %, nooziq-ovqat mahsulotlar o'sish sur'ati 107,9 % ga to'g'ri keldi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Iste'mol tovarlari – birinchi navbatda, shaxsiy iste'mol uchun yoki foyda olish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa maqsadlarda ishlatiladigan sanoat mahsulotlari.


Hududlar kesimida iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Andijon viloyatiga to'g'ri kelib, 23,6 %, shuningdek, Toshkent shahri 18,9 %, Toshkent viloyati 13,9 %, Samarqand viloyati 6,7 % ekanligi kuzatildi.




mlrd. so'mda

o'sish sur'ati, % da


yanvar-may
mlrd.so'mda



Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmida
iste'mol tovarlarining ulushi




yanvar-may
o'sish sur'ati, % da





Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Respublika bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 1 799,4 ming so'm bo'lgani holda, Toshkent shahrida – 4 129,9 ming so'mni, Andijon viloyatida – 4 601,6 ming so'mni, Toshkent viloyatida – 3 007,7 ming so'mni va Jizzax viloyatida – 2 807,3 ming so'mni tashkil etdi.



Respublikada aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarishi hajmi




ming. so'mda

o'sish sur'ati, % da

Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Andijon viloyatiga to'g'ri kelib, 36,9 %, shuningdek, Toshkent shahri 12,5 % ni, Toshkent viloyati 10,6 % ni, Jizzax viloyati 9,6 % ni tashkil etdi.

yanvar-may
mlrd.so'mda




Jami iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmidagi ulushi

59,0 %



yanvar-may
o'sish sur'ati, % da




Hudud	Hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati (%)
Jizzax	199,7	100,0
Namangan	133,9	100,0
Surxondaryo	119,1	100,0
Qoraqalpog'iston Resp.	118,7	100,0
Samarqand	117,6	100,0
Navoiy	110,6	100,0
Qashqadaryo	110,2	100,0
Farg'ona	109,0	100,0
Andijon	103,4	100,0
Toshkent	103,4	100,0
Buxoro	97,2	100,0
Toshkent sh.	91,9	100,0
Xorazm	88,7	100,0
Sirdaryo	88,0	100,0
Jami	3 667,0	100,0

● mlrd. so'mda o'sish sur'ati, % da


Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Toshkent shahriga to'g'ri kelib, 28,1 % ni, Toshkent viloyatiga 18,6 % va Samarqand viloyatiga 8,3 % ekanligi kuzatildi.



Jami iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmidagi ulushi

41,0 %




Sirdaryo	136,6
914,0	
Toshkent	118,4
4 962,8	
Xorazm	117,4
2 123,2	
Samarqand	115,0
2 220,6	
Qoraqalpog'iston Resp.	113,3
880,1	
Andijon	112,9
1 168,3	
Toshkent sh.	112,6
7 470,9	
Qashqadaryo	109,6
1 194,2	
Buxoro	109,2
1 320,3	
Navoiy	103,1
819,5	
Namangan	102,3
1 298,2	
Jizzax	95,0
485,8	
Farg'ona	93,9
1 403,2	
Surxondaryo	82,9
371,5	



● mlrd. so'mda o'sish sur'ati, % da

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 55,2 trln. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 23,9 % ni tashkil etdi. 2022- yilning yanvar-may oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 21,1 % ni tashkil etgan.



Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi



Surxondaryo	48,8
1 356,1	
Namangan	46,3
3 471,0	
Samarqand	43,6
5 100,0	
Farg'ona	42,9
4 943,6	
Buxoro	35,9
3 823,6	
Toshkent sh.	32,3
13 621,2	
Sirdaryo	30,3
1 754,0	
Andijon	23,4
5 010,5	
Qoraqalpog'iston Resp.	23,4
1 474,4	
Jizzax	23,4
1 701,3	
Qashqadaryo	19,6
2 228,3	
Xorazm	18,2
1 391,1	
Toshkent	16,5
6 344,9	
Navoiy	7,6
2 962,2	

● mlrd. so'mda Ulushi, % da